



GDP GROWTH, INFLATION AND UNEMPLOYMENT IN THE UZBEKISTAN ECONOMY: THEORETICAL AND EMPIRICAL ANALYSIS FOR THE PERIOD OF 2000-2024

Hamidullo Xayrullayev

University of World Economy and Diplomacy 1st Year Student

Faculty of International Economics and Management

Abstract

This research work provides an in-depth analysis of the relationship between GDP growth rates, inflation and unemployment rates based on modern macroeconomic approaches. In addition to fundamental theories such as the current transformation of the Phillips curve and the practical significance of Okun's law, the study also covers the concepts of the Keynesian multiplier and supply shocks. The uniqueness of the study is that it studies the dynamics of the Uzbek economy from 2000 to the end of 2024 in comparison with international economic trends. Therefore, the article demonstrates the impact of GDP growth on inflation based on the macroeconomic indicators forecast for 2025-2026 and the latest data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and the International Monetary Fund. In particular, it is argued that economic activity exerts pressure on price growth at the initial stage, but in the long term it ensures stability due to competition and technological efficiency. An effective synthesis of classical and neoclassical views on reducing unemployment is proposed.

Keywords: GDP, inflation, unemployment, Phillips curve, Okun's law, macroeconomic stability, economy of Uzbekistan, economic analysis.



Introduction

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA YaIM O'SISHI, INFLATSIYA VA ISHSIZLIK: 2000-2024 YILLAR ORALIG'DA NAZARIY VA EMPIRIK TAHLIL

Hamidullo Xayrullayev

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot ishida YaIM o'sish sur'atlarining inflatsiya va ishsizlik darajasi bilan o'zaro bog'liqligi zamonaviy makroiqtisodiy yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda Filips egri chizig'ining bugungi kundagi transformatsiyasi va Ouken qonunining amaliy ahamiyati kabi fundamental nazariyalar bilan bir qatorda, Keyns multiplikatori hamda taklif shoklari konsepsiyalari keng qamrab olingan. Tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda O'zbekiston iqtisodiyotining 2000-yildan 2024-yil yakunigacha bo'lgan dinamikasi xalqaro iqtisodiy tendensiyalarni bilan qiyosiy o'rganilgan.

Shu sababli, maqolada 2025-2026 yillar uchun prognoz qilingan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining so'nggi malumotlari asosida YaIM o'sishining inflatsiyaga ta'siri isbotlab berilgan. Xususan, iqtisodiy faollikning dastlabki bosqichda narxlar o'sishiga bosim o'tkazishi, biroq uzoq muddatli istiqbolda raqobat va texnologik samaradorlik hisobiga barqarorlikni ta'minlashi dalillangan. Ishsizlikni kamaytirish borasida esa klassik va neoklassik qarashlarning samarali sintezi taklifi etiladi.

KALIT SO'ZLAR: YaIM, inflyatsiya, ishsizlik, Filips egri chizig'i, Okun qonuni, makroiqtisodiy barqarorlik, O'zbekiston iqtisodiyoti, iqtisodiy tahlil.

I. KIRISH

Zamonaviy makroiqtisodiy tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlardan biri-milliy daromad o'sishi va narxlar barqarorligi o'rtasidagi ziddiyatli muvozanatni tahlil qilishdir. Iqtisodiy nazariyada "rivojlanishning muqarrar badali" deb qaraladigan ushbu fenomen ishlab chiqarish samaradorligining ortishi ko'pincha



inflatsiyon jarayonlarini jadallashtirishga asoslanadi. Shunga qaramay, mazkur bog'liqlik qat'iy chiziqli xarakterga ega emas, u kop jihatdan milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, monetary instutlarning mustaqilligi hamda global konyunktura ta'siridan shakillanadi .

YaIM nafaqat ma'lum davrda yaratilgan moddiy va nomoddiy ne'matlarning agregat ko'rsatkichi, balki investitsion jozibadorlik, iste'mol tendensiyalari va makroiqtisodiy boshqaruv samaradorligining kompleks aks etishidir. Shu nuqtayi nazardan YaIM dinamikasining inflatsiya va ishsizlik darajasi bilan o'zaro aloqadorligini tadqiq etish barqaror iqtisodiy strategiyalarni belgilashda fundamental ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti 2016-2024 yillar oraligida valyuta bozorini liberallashtirish, narxlarni erkinlashtirish va investitsiya muhitini tubdan isloh qilish kabi transformatsion bosqichlarni bosib o'tdi. Ushbu o'zgarishlar sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlari, narxlar indekisi va bandlike ko'rsatkichlari o'rtasidagi murakkab iyerarxiya ham ilmiy doiralarning ham siyosiy qaror qabul qiluvchi instutlarning asosiy diqqat markazida bo'lib qolmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi. (2024, 8-bet) o'z "Xalqaro valyuta jamg'armasining 4-modda doirasidagi maslahatlashuv hisoboti" konsultatsiyasida ham ta'kidlaganidek, O'zbekistondagi norasmiy sektor va mehnat migratsiyasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri hali to'liq o'rganilmagan. Ushbu tadqiqot birinchi marta YaIM, inflatsiya, ishsizlik uchligini rasmiy va norasmiy sektor ma'lumotlarini birlashtirgan holda o'rganadi.

II. METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda 2000-2024 yillar oralig'ini o'z ichiga olgan vaqt qatorlari ma'lumotlardan foydalanildi. Asosiy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan yillik statistik to'plamlardan olindi.[11] . Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida pul massasi hamda asosiy foiz stavkalari haqidagi ma'lumotlar jamlandi.[10].

Bundan tashqari Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan 2015-2024 yillarda e'lon qilingan 4-modda bo'yicha maslahatlashuv materiallari[7] hamda Jahon Bankining O'zbekistonga oid iqtisodiy yangilanish hisobotlari[16] qo'shimcha manba sifatida jalb etildi.

Mustaqil o'zgaruvchi sifatida haqiqiy YaIM o'sish sur'ati foizlarda, 2015 yil bazaviy yil sifatida qabul qilindi [1;8]. Bog'liq o'zgaruvchilar esa inflatsiya va ishsizlik darajasidan iborat bo'ldi.

Rasmiy ishsizlik ko'rsatkichlarining to'liq real holatini aks ettirmasligi ehtimolini hisobga olib, tahlil doirasiga kengroq talqindagi "keng qamrovli ishsizlik" indikatori ham kiritildi [7;16]. Ushbu ko'rsatkich tarkibiga rasmiy ro'yxatdan o'tgan ishsizlar bilan bir qatorda qisman band aholining ayrim qismi hamda mehnat migratsiyasi sababli vaqtincha ish faoliyatidan chetda qolgan shaxslar kiritildi. [11].

Tadqiqotning nazariy asoslari uchta muhim modelga tayangan holda shakllantirildi.

Birinchisi- "Yangi Keynscha Filips egri chizig'I" bo'lib, u inflatsiya jarayonlarini YaIMning potensial darajadan og'ishi hamda inflatsion kutilmalar orqali izohlaydi [5;15].

Ikkinchisi- Ouken qonunining zamonaviy talqini bo'lib, unda iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsenti O'zbekiston sharoitida baholanadi [9].

Uchunchisi- Pul miqdori nazariyasi yondashuvi bo'lib, pul massasi o'sishi bilan nominal YaIM dinamikasi o'rtasidagi aloqani tahlil qilishga hizmat qiladi [4;15]

Emperik tahlilda grafik usullar va korrelyatsion yondashuvlardan foydalaniladi [14]. Shu bilan birga rasmiy statistik ma'lumotlarning ayrim cheklovlari inobatga olinib, natijalar miqdoriy hisob-kitoblar bilan bir qatorda sifat jihatidan hamtalqin qilindi [3;14]. Tahlilni boyitish maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan Qozog'iston va Qirg'iziston, shuningdek iqtisodiy rivojlanish darajasi o'xshash bo'lgan Gruziya va Armaniston bilan taqqoslash ham amalga oshirildi [7;16]

III. NATIJALAR

3.1. Nazariy munosabatlarning tahlili

3.1.1. Talab tortishi mexanizmi

YaIM o'sishi va inflatsiya o'rtasidagi bog'liqlik asosan talab tortishi mexanizmi orqali shakllanadi. Abel ta'kidlaganidek, iqtisodiy o'sish davrida uy xo'jaliklarining real daromadi ko'tariladi, investitsiya faolligi ortadi va davlat xarajatlari kengayadi, bularning yig'indisi umumiy talabni oshiradi [1, 2020,

421-bet] . Agar talab o'sishi umumiy taklif bilan qoplanmasa, narxlar darjasi ko'tariladi.

"Inflatsiya doimo va hamma joyda pul hodisasidir" -ushbu mashhur ibora pul massasining YaIM nisbatiga ko'tarilishi orqali inflatsion bosim yuzaga kelishi mexanizmini aniq ifodalaydi [4].

Pul miqdori tenglamasi $MV=PY$ asosida real YaIM o'sganda, inflatsion bosimni keltirib chiqarmasdan pul massasini proporsional ravishda oshirish mumkin[4;15]. Mankiw ushbu tenglamadan muhim siyosiy xulosa chiqaradi : Markaziy bank YaIM o'sish suratidan yuqori tezlikda pul massasini oshirmasa, inflatsion bosim shakillanmaydi.[8, 2019, 89-bet]

3.1.2. Filips egri chizig'i: qisqa va uzoq muddatli tahlil

Filips Britaniyaning 1861-1957 yillar statistikasini tahlil qilib, ish haqi o'sishi va ishsizlik darjasi o'rtasida teskari bog'liqlik borligini birinchi emperik tarzda isbotladi [13, 1958, 283-bet].Keyinchalik ish haqi o'sishi inflatsiya bilan almashtirlidi va bu bog'liqlik siyosat ishlab chiqishning asosiga aylandi[6;13]

Biroq Phleps va Friedman mustaqil ravishda "kutilmalar bilan kengaytirilgan Filips egri chizig'i" konsepsiyasini ishlab chiqdilar [12, 1968, 678-bet; 4, 1968, 8-bet]. Ularning asosiy g'oyasi: qisqa mudatda inflatsiya va ishsizlik o'rtasida murosali munosabat mavjud, ammo uzoq muddatda egri chiziq tikka bo'ladi- pul siyosati real o'sishiga emas, faqat nominal ko'rsatgichlarga ta'sir qiladi.

Gali tomonidan ishlab chiqilgan Yangi Keynscha Filips egri chizig'I dinamik model bo'lib inflatsiyani quyidagi tarzda ifodalaydi: $\text{inflatsiya} = \beta \times (\text{output gap}) + \lambda \times (\text{kutilgan inflatsiya})$. Bu model YaIM quvvat bo'shligini inflatsiyaning asosiy harakatlantiruvchisi sifatida belgilaydi [5;15].

3.1.3. Okun qonuni va bandlik dinamikasi

Ouken YaIM o'sishi va ishsizlik darjasi o'rtasidagi empiric munosabatni aniqlaydi: haqiqiy YaIM potensial YaIMdan 1 % ga oshsa, 0,3-0,5% ga kamayadi[9].Gordon bu koeffitseientning mamalakatga va davrga qarab farqlanishini ko'rsatadi:texnologik o'zgarishlar, ishchi kuchinin g Malaka tuzilmasi va mehnat bozorining instutsional xususiyatlari Ouken munosabatini sezilarli darjada o'zgartiradi

3.2. O'zbekiston makroiqtisodiy ko'rsatgichi: 2000–2024

3.2.1. Birinchi bosqich: 2000–2007

O'zbekiston Statistika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2000- yilda YaIM o'sishi 3,8 %ni, inflatsiya esa 28,2% ni tashkil etd[11,2024]. Bu yuqori inflatsiya davr qisman qattiq valyuta nazorati va ikkilamchi bozor kurslarining rasmiy kursdan keskin farqlanishi bilan bog'liq edi. 2007-yilga kelib YaIM o'sishi 9,5% ga ko'tarilgan holda inflatsiya 12,3% ga tushdi – bu xomashyo eksporti va Rossiyadanp ul o'tkazmalarining o'sish hisobiga.

3.2.2. Ikkinchi bosqich: 2008–2015

Jahon Banki ta'kidlaganidek, 2008-2015 yillar O'zbekiston uchun nisbiy barqarorlik davri bo'ldi: YaIM yiliga 7-8%, inflatsiya 7-14% oralig'ida [16,2024, 12-bet] . 2012-yilda inflatsiya 7% ga tushdi-davr record ko'rsatgichi[11]. Biroq valyuta nazoratining qattiqqligi ikkilamchi bozor kurslarini rasmiy kursdan sezilarli darajada uzoqlashtirdi, bu esa xorijiy investitsiyalar oqimini chekladi [7;16]

3.2.3. Uchinchi bosqich: islohotlar davri 2016–2019

Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotida qayd etilganidek, 2017-yil sentabrda valyuta liberallashtirishi, narxa erkinlashtirilishi va import/eksport tartib-qoidalarining soddalashtirilishi O'zbekiston iqtisodiyotida muhim tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi[7, 2024, 14-bet] . YaIM o'sishi 5-6 foiz darajasida saqlanib qolgan holda inflatsiya 2018-yilda 17.5% ga ko'tarildi. Woodfordning nazariyasi asosida bu bir martalik narx darajasi ko'tarilishi bo'lib uzluksiz inflatsiya hisoblanmaydi[15, 2003, 12-bet].

3.2.4. To'rtinchi bosqich: COVID-19 va tiklanish 2020–2024

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra , 2020-yilda YaIM o'sishi 1,9%ga sekinlashdi-ko'p yillik o'rtacha ko'rsatgichdan ancha past, biroq manfiy bo'lmadi[10, 2024, 7-bet]. Keng qamrovli fiscal va monetary qo'llab-quvvatlash choralari hisobiga iqtisodiyot 2021-yilda 7,4%lik o'sish sur'atiga qaytdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi 2024-yil uchun 5,8 foizlik YaIM o'sishi va 8,5%lik inflatsiyani prognoz qilmoqda[7, 2024, 3-bet].

3.3. Statistik jadval: O'zbekiston makroiqtisodiy ko'rsatkichlari 2000–2024

1-jadval. O'zbekiston asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2000–2024)

Yil	YaIM o'sishi (%)	Inflatsiya (%)	Rasmiy ishsizlik (%)	Pul massasi M2 o'sishi (%)	Pul o'tkazmalari / YaIM (%)	Izoh
2000	3.8	28.2	6.0	35.4	2.1	Boshlanish davri
2002	4.2	21.6	5.8	27.1	3.0	Sekin tiklanish
2005	7.0	10.0	5.3	20.8	5.2	O'sish sur'ati oshdi
2007	9.5	12.3	5.1	25.3	8.1	Rekord o'sish
2008	9.0	14.1	5.1	22.6	9.4	Global inqiroz yili
2010	8.5	9.4-12.3	5.2	18	10.2	Barqarorlik davri
2012	8.2	7.0	5.2	16.5	11.1	Rasmiy eng past inflatsiya
2015	8.0	5.6-8.8	5.1	14.8	9.8	Islohot arafasi
2017	5.3	13.9-14.4	5.4	18.9	8.5	Valyuta liberallashuvi
2018	5.1	17.5	5.4	20	8.1	Narx darajasi o'sdi
2019	5.7	14.5-15.2	5.3	19.1	7.6	Islohotlar davom etdi
2020	1.9	11.1-12.9	5.7	28.5	6.8	COVID-19 zarba yili
2021	7.4	10.8	5.6	24.1	7.2	Tez tiklanish
2022	5.7-6	11.5-12.3	5.5	22	8.9-20+	Global narx shoki
2023	6-6.3	9.8-10	5.4	19.7	9.3-17.7	Inflatsiya pasaydi
2024*	5.4-6.5	8.5-9.6	5.3-4.5	17.2	9.6	Prognoz (XVJ, 2024)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi [11,2024]; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki [10, 2024]; Xalqaro valyuta jamg'armasi-4- modda bo'yicha maslahatlashuv hisoboti[7, 2024];Jahon Banki O'zbekiston iqtisodiy yangilanishi[16,2024]. 2024-yil prognoz qiymatlari.

3.4. Bandlik va ishsizlik dinamikasi

O'zbekiston Statistika Agentligi ma'lumotlari bo'yichamras rasmiy ishsizlik darajasi 2000-2024 yillarda 5,1-5,7% oralig'ida barqaror qolgan[11, 2024]. Biroq Romer ta'kidlaganidek, rasmiy statistika iqtisodiy realikni to'liq aks ettirmaydi[14, 2019, 448-bet]. Xalqaro valyuta jamg'armasi hisob-kitobiga ko'ra,2-3 million o'zbekistonlik Rossiya,Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda vaqtincha ishlaydi; pul o'tkazmalari YaIMning 8-11%ni tashkil etadi[7, 2024, 19-bet]

Jahon Bankning "O'zbekistonda bandlike tendensiyalari" bo'limida "ish o'rinlari yaratilmasdan iqtisodiy o'sish" hodisasi 2021-2023 yillarda kuzatilgani qayd etilgan: yuqori YaIM o'sishifonida rasmiy bandlik ko'rsatgichi sezilarli yaxshilanmadi[16, 2024, 24-bet].Buning asosiy sababi-raqamli texnologiyalar va avtomatizatsiyaning ishlab chiqarishga kirib borishi va norasmiy sektordagi bandlikning sattistikaga butunlay tushmayotganligi.

IV. MUHOKAMA

4.1. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut

Natijalarga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotda YaIM o'sishi va inflatsiya o'rtasidagi munosabat Blanchardning standart Yangi Keynscha modelidan sezilarli farq qiladi[2, 2021,152-bet]. Asosiy farqlanishning uchta sababi aniqlanadi.Birinchiidan ,norasmoiy sektordagi katta ulush umumiy talab stimullarini so'ndiruvchi buffer sifatida ishlaydi[7,XVJ,2024, 22-bet].Ikkinchidan import qilingan inflatsiya kanali ichki talab omillaridan kuchliroq ishlashi mumkin.Uchunchidan monetary uzatish mexanizmining zaif ishlashi-kredit/YaIM nisbatining pasltigi.

4.2. Filips egri chizig'ining O'zbekiston uchun tadbiiq etilishi

Filips va Phelps tomonidan asoslangan Fillips munosabati O'zbekistonda nozik tarzda ishlaydi.Gordon tahlilida ko'rsatganidek, ishchi kuchi yuqori mobilliga ega mamlakatlarda Fillips egri chizigi tekisroq bo'ladi -bu O'zbekiston holatini aniq tavsiflaydi[13,12,6, 2011,30-bet]

4.3. Okun koeffitsientining o'ziga xos xususiyatlari

Ouken qonuniga muvofiq hisoblangan koeffitsent O'zbekiston uchun 0,2-0,35 oralig'ini tashkil etadi. Abel va boshqa olimlar bunday past koeffitsenti norasmiy sektorning yuqori ulishi mehnat migratsiyaning tampon roli bilan bog'liqlikni ta'kidlaydi. Bunday natija Jahon Banki tahlilda ham tasdiqlangan [9;1;16]

4.4. Monetar uzatish mexanizmi muammosi

Gali monetary uzatish mexanizmining kredit bozori chuqurligi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi[(2015,91-bet).Markaziy bank malumotlariga ko'ra kredit/YaIM nisbati 2023-yilda 50-55% da bo'lgan. Woodford ta'kidlaganidek, moilaviy chuqurlik past bo'lganda foiz stavkasi o'zgarishining real iqtisodiyotga ta'siri sekinlashadi[5;10].

4.5. Cheklovlar

Ushbu tadqiqotning metodologik cheklovlari e'tirof etilishi lozim. Birinchidan 25 yillik qisqa vaqt qatori murakkab ekonometrik modellar uchun yetarli emas- bu Romer (2019, 7-bet) tomonidan ham qayd etilgan. Ikkinchidan, rasmiy ishsizlik statistikasining norasmiy sektorni to'liq aks ettirmasligi tahlil natijalarini cheklaydi. Kelajak tadqiqotlar uchun norasmiy sektor bandligini o'lchashning yangi metodologiyalari va mintaqaviy farqlarni tahlil qilish tavsiya etiladi.

V. XULOSA VA TAVSIYALAR

5.1. Asosiy xulosalar

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston YaIM o'sishi va inflatsiya o'rtasidagi munosabat qisqa muddatda ijobiy ,biroq kuchsiz -import narxlar va valyuta kursi bu bog'liqlikni sezilarli modulyatsiya qiladi[1;7].Ouken koeffitsenti 0,2-0,35 darajasida bo'lib norasmiy sektor va mehnat migratsiyasining tampon roli tufayli rivojlangna iqtisodiyotlardan past .YaIM quvat bo'shlig'i salbiy bo'lgan davrlarda iqtisodiy o'sishni inflatsiyasiz oshirish mumkinligi 2020-2021 yillar tajribasida tasdiqlandi.[11]

5.2. Siyosiy tavsiyalar

5.2.1. Pul-kredit siyosati

Woodfordning optimallik sharti asosida: Markaziy bank inflatsiya maqsadlash rejimini davom ettirib,YaIM ortishini teng ravishda kuzatishi lozim, ammo

birlamchi maqsad narx barqarorligi bo'lishi kerak. Monetar uzatish mexanizmini kuchaytirish uchun kredit bozorini chuqurlashtirish, bank sektori raqobatini oshirish zarur [5,Gali, 2015, 95-bet]

5.2.2. Fiskal siyosat

Blanchard tomonidan taklif qilingan tsiklik fiskal qoida bo'yicha: iqtisodiy o'sish davrida bufer fondlarini to'ldirish, tanazzul davrida avtomatik stabilizatorlarni faollashtirish inflyatsion bosimni boshqarishda fiskal siyosatni monetar siyosatning to'ldiruvchisi sifatida samaraliroq qilad[2,2021, 188-bet]. Katta infratuzilma loyihalari qisqa muddatda inflyatsion ta'sir ko'rsatishi tabiiy, biroq ular uzoq muddatda potensial YaIM ni kengaytirishi shart [3,2014, 308-bet]

5.2.3. Tarkibiy va mehnat bozori islohotlari

Mankiw ta'kidlaganidek, taklif tomonini mustahkamlash- ta'lim, kasb-hunar tayyorgarligiga investitsiyalar kiritish raqobat muhitini rivojlantirish-YaIM o'sishini inflatsiyasiz ta'minlashning eng barqaror yo'lidir[8, 2019, 229-bet]. XVJ O'zbekiston uchun faol mehnat bozori dasturlari ALMP orqali YaIM o'sishining bandlikka aylanishi nisbatini oshirishni, ayniqsa yoshlar uchun IT va texnologiya sohasidagi tayyorgarlikni kuchaytirish dasturlarini tavsiya etgan[7, 2024, 34-bet]

5.3. Yakuniy fikr

Makroiqtisodiy ko'rsatgichlar ortida real insonlar hayoti turadi: inflatsiya sotib olish qobiliyatini, ishsizlik esa inson qadr-qimmatini bevosita belgilaydi. Shu sababli ilmiy tahlil nafaqat raqamli aniqlikni, balki iqtisodiy siyosatning ijtimoiy oqibatlarini chuqur pragnoz etishni ham talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Abel, A. B., Bernanke, B. S., & Croushore, D. (2020). *Macroeconomics* (10th ed.). Pearson Education. ISBN: 978-0-13-479546-0.
2. Blanchard, O. (2021). *Macroeconomics* (8th ed.). Pearson Education. ISBN: 978-0-13-516954-0.
3. Dornbusch, R., Fischer, S., & Startz, R. (2014). *Macroeconomics* (12th ed.). McGraw-Hill Education. ISBN: 978-0-07-802925-3.

4. Friedman, M. (1968). The role of monetary policy. *American Economic Review*, 58(1), 1–17. <https://doi.org/10.1017/S1053837200006921>
5. Galí, J. (2015). *Monetary policy, inflation, and the business cycle: An introduction to the New Keynesian framework* (2nd ed.). Princeton University Press. ISBN: 978-0-691-16478-6.
6. Gordon, R. J. (2011). The history of the Phillips curve: Consensus and bifurcation. *Economica*, 78(309), 10–50. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.2009.00815.x>
7. International Monetary Fund. (2024). *Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation — Staff Report*. IMF Country Report No. 24/210 Washington, D.C.: IMF Publications.
8. Mankiw, N. G. (2019). *Macroeconomics* (10th ed.). Worth Publishers. ISBN: 978-1-319-10411-9.
9. Okun, A. M. (1962). Potential GNP: Its measurement and significance. *Proceedings of the Business and Economic Statistics Section, American Statistical Association*, 98–104.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2024). *2023-yil monetar siyosat sharhi va 2024-yilga mo'ljallangan yo'nalishlar [Yillik hisobot]*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.
11. O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi. (2024). *O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari to'plami 2000–2023 [Ma'lumotlar bazasi]*. Toshkent: Statistika Agentligi.
12. Phelps, E. S. (1968). Money-wage dynamics and labor-market equilibrium. *Journal of Political Economy*, 76(4, Part 2), 678–711. <https://doi.org/10.1086/259438>
13. Phillips, A. W. (1958). The relation between unemployment and the rate of change of money wage rates in the United Kingdom, 1861–1957. *Economica*, 25(100), 283–299. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.1958.tb00003.x>
14. Romer, D. (2019). *Advanced macroeconomics* (5th ed.). McGraw-Hill Education. ISBN: 978-1-260-18521-8.
15. Woodford, M. (2003). *Interest and prices: Foundations of a theory of monetary policy*. Princeton University Press. ISBN: 978-0-691-01049-6.
16. World Bank. (2024). *Uzbekistan economic update: Navigating structural transformation* (Spring 2024 ed.). Washington, D.C.: The World Bank Group.